

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**MUXAMEDOVA Madina Ashurovna***O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**“San’at nazariyasi va tarixi”**kafedrasida katta o‘qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.13908882>

## ISOHOR OQILOV IJODIDA SAHNAVIY RAQS MEROSI

### ANNOTATSIYA

Buxoro raqs san'atining ko'p asrga egaligi, tarixiy boy merosi, uning o'ziga xosligi, g'ayrati, qimmatbaho liboslari, shijoatli raqslari, bugungi kunda uning tutgan o'rni, rivojlanishi, raqs maktabi sifatida shakllanib ravnaq topishi. Ijrochilarning o'zgacha g'urur, e'tibor bilan buxoro raqslarini ijro etishlari fikrimizning bayonida berilgan.

Ushbu maqolada buxora raqs san'ati ijodkori Isohor Oqilovning milliy raqs san'ati merosiga qo'shgan hissasi, an'analar davomiyligi, buxoro raqs maktabini shakllanishi va uning ijodida merosiy raqslarning yaratilishi, uning davomchilari hozirgi kunda uning merosiy raqslarini mahurat bilan o'rganib, ijro etib kelayotganlari alohida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, raqs, an'ana, meros, qadriyat, baletmeyster, ijodkor, xoreograf, davomiylik, pedagog, maktab, milliylik.

## НАСЛЕДИЕ СЦЕНИЧЕСКОГО ТАНЦА В ТВОРЧЕСТВЕ ИСОХОРА АКИЛОВА

### АННОТАЦИЯ

Многовековое танцевальное искусство Бухары, богатое историческое наследие, его самобытность, энтузиазм, дорогие костюмы, энергичные танцы, его место сегодня, его развитие, его развитие как танцевальной школы. В изложении нашего мнения указано, что исполнители с особой гордостью и вниманием исполняют бухарские танцы.

В данной статье рассматривается вклад творца бухарского танцевального искусства Исохора Акилова в наследие национального танцевального искусства, преемственность традиций, становление бухарской танцевальной школы и создание танцевального наследия в его творчестве, его продолжатели сейчас изучают и исполнение его традиционных танцев особенно ярко.

**Ключевые слова:** Бухара, танец, традиция, наследие, ценность, балетмейстер, творец, хореограф, преемственность, педагог, школа, национальность.

## THE LEGACY OF STAGE DANCE IN THE WORK OF ISOKHOR AKILOV

### ANNOTATION

The centuries-old dance art of Bukhara, its rich historical heritage, its originality, enthusiasm, expensive costumes, energetic dances, its place today, its development, its development as a dance school. The statement of our opinion indicates that the performers perform Bukhara dances with special pride and attention.

This article examines the contribution of the creator of the Bukhara dance art Isokhor Akilov to the heritage of the national dance art, the continuity of traditions, the formation of the Bukhara dance school and the creation of a dance heritage in his work; his successors are now studying the performance of his traditional dances especially vividly.

**Key words:** Bukhara, dance, tradition, heritage, value, choreographer, creator, choreographer, continuity, teacher, school, nationality.

Har bir o'zbek raqs maktabining o'zi bir olam. Farg'ona raqslari goh sho'x va tetik, goh mayin oquvchi harakat, gavdani bir oz oldinga egib erkin, nafis tutish, xilma-xil ma'no kashf etuvchi chiroyli qo'l harakatlariga xos bo'lgan. Buxoro raqs maktabining esa odatda tovonini urib-urib, tizzani bukib, ayni chog'da gavdani g'oz tutib, viqor bilan kift titratib, aniq shaklli puxta qo'l harakatlari bilan o'ynaganlar. Xorazm raqsi uchun esa tizzalarni sal bukib, kiftlarni tik tutib, butun tanani harakatga keltirib, bilak va barmoqlardan turli tuman chiroyli shakllar yasab, o'ynoqi sho'x, otashin o'ynash xarakterlidir.

Xorazmda qayroq bilan o'ynash keng rasm bo'lgan. O'zbek raqsida obrazlilik mazmundorlik hal qiluvchi rol o'ynaganki, bu xususiyat barcha maktab va uslublarni bog'lab yagona o'zbek raqsini maydonga keltirgan. Raqs uslub va maktablari bir-biriga ta'sir ko'rsatib, ijodiy hamkorlik tortishuv keng tus oladi. Buning natijasida ijro maktablarning mazmuni boyib, ahamiyati oshadi. Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining bir qator shaharlarida yirik raqs ansambllari tashkil etilgan bo'lib, faqat O'rta Osiyoda emas undan tashqarida ham o'zbek raqs san'atini munosib namoyish etdi.

Ma'lumki, o'zbek milliy raqs san'ati mamlakatimizda XX asrning 20 yillarida yanada rivojlandi. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isohor Oqilov, Roziya Karimova kabi fidoyi san'atkorlar milliy ijrochilik maktabini yaratdilar. Ustoz san'atkorlar milliy raqs san'atini ko'p asrlardan buyon asrab-avaylab kelayotgan an'ana va asriy qadriyatlar asosida boyitdilar. Bu asosan yakka va umumiy raqslarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ko'p asrlik, tarixiy boy merosi, uning o'ziga xos milliy xususiyatlari, g'ayrati, hayot tarzi, qadim zamonlardan shakllanib, harakatlarining mardonavor va shiddatligi, qayrilish, yarim qayrilish, sho'x va charxlarga boyligi bilan ajralib turadi. San'atining an'alarini saqlanishida, kamol topishida Radjab Ali, Djuraxon, Ergashcha, Nurillo, Islom Shadi, Hamdamxon, Mirzaxon, Abduraxim, Iskandar, Maston, Kirkigi (M.Xaimova), Chervon-xonim, Sa'dulla Sa'dullaev, Tojiddin Sobirov, Bibishirin Ma'manova, Chervonxonim, Oliyaxon Xasanova, Isohor Oqilov, Margarita Oqilova, Tuxfaxon Pinxasova, singari raqs ijodkorlari va baletmeysterlarni o'rni beqiyosdir. Buxoro raqs maktabini keyingi avlodga yetkazilishida Isohor Oqilov, Margarita Oqilova Viloyat, Zulayho Oqilova hamda Lola Oqilovalarning faoliyati, ularning chuqur hayotiylik ruhi bilan sug'orilgan qator raqs asarlari xalqimizning ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutib, katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi. Buxoro milliy raqs ijrochilari, baletmeysterlari tarixiy an'analarga nazar solish bilan birga merosni boyitib, taraqqiy ettirishdi.

Buxoro raqs san'atining ko'p asrlik boy merosi va uning o'ziga xos milliy xususiyatlarini o'z ijodida shakllantirgan Isohor Oqilov milliy raqs san'atida professional Buxoro raqs maktabiga asos soldi.

Isohor Oqilov ustoz baletmeysterlarning o'tmish an'alaridan ijodiy foydalanib, uni o'z tajribalari asnosida boyitdi. Isohor Oqilov o'z ijodini 14 yoshida doira usullarini o'rganishdan boshlaydi. Bu esa yetishib kelayotgan raqqos uchun zarur bo'lgan turli xil raqs usullarini yaratilishiga sabab bo'ladi.

Isohor Oqilov asta-sekin ustozlari bilan mahallalarda bo'lib o'tadigan to'yu-hashamlarda doirachilik qila boshlaydi. Buxorodan Samarqandga tashrif buyurgan raqqosalarning san'atini ko'rishga muvaffaq bo'ladi va shundan so'ng Buxoroning ajoyib, lekin murakkab raqs uslubini egallay boshlaydi.

Bu raqslarni o'rganish yosh ijrochidan ko'p mehnat, mashg'ulot va izlanishlarni talab qilardi. Mana shunday xilma-xil usul, ohang, qo'l va oyoq harakatlarga ega bo'lgan buxoro raqslari Isohor Oqilov tafakkurini yanada boyitadi, unda g'oyat katta badiiy didning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Isohor Oqilovning tirishqoqligi, mehnatsevarligi, yangi-yangi raqs harakatlariga chanqoqligi va cheksiz muhabbatidan murabbiylari ham mamnun bo'lar edi [1, B.195].

Buxoro jamoa raqslari jangovar xarakterga ega bo'lib, hech birida uchramaydi bitta xonlik. Zarafshon vodiysida "Beshqarsak" va "Qarsak o'yin" raqslari ijro etilgan. Boshqa hududlarda ham o'xshashlarini topa olmadi. Xorazm raqslari quvnoq edi olovli kayfiyat. "Qayroq o'yini", "Zang o'yini", "Masxaraboz-o'yini", raqslar hayvonlarning odatlariga taqlid qilish g'ayrioddiy plastik va ifodali edi [2, B.56].

Isohor Oqilov 1914 yili Samarqandda tug'ilgan va shu yerda yetti yillik maktabini tamom qilib, turli xil yarim-professional truppalarga qatnasha boshlagan.

U 1926 yil yilda Muhitdin qori Yoqubov, Tamaraxon, Gavhar Petrosyanlar bilan birgalikda o'zbek davlat etnografik ansamblni tuzadi. Ushbu teatr huzurida tashkil qilingan balet studiyasida Isohor Konstantin Bekdan mumtoz balet bo'yicha saboqlar oladi. A.M.Chetvertakovning "Qizil gul, oq gul" nomli bir pardali baletida yigit raqsini, zamonaviy mavzular asosida yaratilgan "O'roq va bolg'a", "Budyoniycha" raqsalarini ham ijro etadi.

Bundan tashqari Isohor Oqilov kontsertlarda mustaqil ravishda "Komsomol", "Arshin mol-olon" musiqali komediyada Halima Raximova va Mukarrama Turg'unboeva bilan birgalikda "Lazgincha" raqsalarini ijro etadi.

1929 yildan Oqilov musikal drama teatrida ishlay boshlaydi. Teatrning barcha artistlari kabi u ham dramatik rollarda o'ynaydi, laparlar aytadi va raqsga tushadi. Usta Olim Komilov bilan Tamaraxonim uning g'ayrati, ishtiyoqini, raqs ritmlarini tez o'zlashtirishi va harakatlarni chiroyli ijro etishini ko'rib, uni raqs studiyasiga qabul qiladilar. Studiyada Isohor Oqilov qisqa vaqt ichida "Katta o'yin"ning barcha usullarini, raqslarning butun sirlari va janrli raqs sahnalarini, ommaviy raqslar tuzilish qonunlarini o'zlashtirib oladi. Shu tarzda Isohor raqs sahnalashtirish ishtiyoqi orta boshlaydi.

1932-1933 yillarda Toshkent musiqali teatrdan ishlab yurgan paytlarida ham raqs bo'yicha ta'lim olishni davom ettiradi. Mana shu teatr jamoasida uning baletmeysterlik qobiliyati ko'rini boshlaydi. Dastlab u farg'onalik raqqos Ota Xo'janing juda tez va chiroylik bajaradigan charx (aylanma harakat)larini qunt bilan o'rganadi. Keyinchalik u mana shu "Charx" raqsini doirachi bilan sahna ijrosiga moslashtirib sahnalashtiradi.

1939 yillarning oxirida Isohor Oqilov Butunittifoq estrada orkestrlari ko'rik tanlovida ishtirok etadi va milliy raqslardagi mohirona ijrosi uchun ushbu ko'rik tanlov mukofoti bilan taqdirlanadi.

Urush yillari Tamaraxonim boshchiligidagi ansambl bilan Buxoro, Termiz, Qarshi shaharlarida, Boku, Tbilisi, Yerevan va Qora dengiz harbiy floti jangchilari uchun konsertlarda o'z mahoratini namoyish qiladi.

Baletmeyster sifatida shakllanayotgan Isohor Oqilov har doim davr tomoshabinining estetik didini o'stiradigan yangi repertuar yaratadi, yoshlarga tayanib ish olib borardi.

Isohor Oqilov Samarqand teatr studiyasida ustozlari Konstantin Bek va Usta Olim Komilovdan o'rgangan raqslarni o'zi mustaqil ravishda sahnalashtira boshlaydi.

Buxoro shashmaqomi kuylari asosida yangi raqslar yaratdi. “Qashqarchan ajam”, “Ufari navo”, “Savti ajam”, “Ufari ajam”, “Soqiynoma”, “Ufari segoh”, “Chavandoz” kabi maqom yo’llari yakka va ommaviy ijro etiladigan raqslarni sahnalashtirishga kirishdi [4, B.56].

Isohor Oqilov raqs san’atini boyitish uchun avvalo o‘zbek xalq musiqa folkloriga murojat qilishni lozim topadi. U Buxoro shashmaqomining ashula qismidagi raqsga mos kuylarni tanlaydi.

1935-1978 yillarda O‘zbek ashula va raqs ansambli, 1956 yilda “Shodlik” ansamblining bosh baletmeysteri bo‘lib faoliyat olib bordi.

1937 yildan O‘zbekiston davlat filarmoniyasida xoreograf bo‘lib ishlagan.

Buxoro yahudiy davlat musiqali teatrida Buxoro shashmaqomi, o‘zbek va tojik maqomlari qo‘shiqdari kuylaridan foydalanib, yakkaxon va jamoaviy raqslarni sahnalashtiradi. U rafiqasi Margarita bilan birgalikda O‘zbekistonning barcha professional raqs jamoalarini yaratishda ishtirok etgan.

1944 yilda Isohor Oqilov Toshkent xoreografiya bilim yurtini bitirib, o‘zbek davlat opera va balet teatrida ish boshlagan yosh raqqosa Galiya Izmaylovaga buxorocho “Larzon” raqsini o‘rgatadi. Bundan tashqari 1946 yilda Moskvadagi Butunittifoq jismoniy tarbiya paradida 400 nafar ijrochi ishtirokida maxsus dastur tayyorlashda ham ishtirok etadi. U rus, belorus, ukrain va boshqa xalqlar raqslari bilan ham yaqindan tanishishga muyassar bo‘lgan edi.

San’atkor baletmeyster sifatida raqslarni faqat sahnalashtirish yoki o‘rgatish bilan chegaralanmay, yangidan-yangi raqs sahnalashtiruvlarini yaratish va rejissyorlik qilish ustida tinimsiz izlanar va raqs ijrochilaridan ham yorqin obrazlar yaratishda, o‘z mahoratini oshirish uchun tinimsiz ishlashini talab qilardi.

Shunday qilib, san’atkor turli xalqlar raqslarini ko‘rishi, o‘rganishi natijasida raqqos-baletmeysterlik mahoratini yuksaltirdi, raqs san’ati xazinasini yangi-yangi durdonalar bilan boyitib bordi [3, B.118].

Mumtoz o‘zbek raqsi xoreografiyasining zamonaviy maktabi asoschilaridan biri bo‘lgan Isohor Oqilov buxoro yahudiylarining professional teatr san’atining vujudga kelishi bilan bevosita bog‘liq edi.

Oqilov Isohor 1988 yil 27 sentyabrda Toshkent shahrida vafot etdi. U Toshkent shahridagi Buxoro-yahudiy qabristoniga dafn etilgan. Hozirgi kunda buxoro milliy raqs san’ati nafaqat professional balki, havaskorlar faoliyatida ham katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Isroildagi “Aka-uka Oqilovlar” raqs ansambli Isohor Oqilov nomi bilan ataldi.

**IQTIBOSLAR. CHOСКИ. REFERENCES**

1. Usmanov A G. Oqilovlar sulolasi va buxoro raqs maktabi. Tadqiqot.uz.2019.
2. Abduxakimova D. Узбекский мужской национальный танец традиции и современность. Tadqiqot.uz.2020.
3. Muxamedova M. Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent:2020.
4. Каримова Р. Узбекские танцы в постановке Исахара Акилова. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. Ташкент:1987.